

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



ISSN:2181-0427

journal.namdu.uz



Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov

Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Imomov

T A H R I R H A Y ' A T I

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobbiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.d., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, t.f.d., v.b. prof G'.Doliyev, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov., PhD. D.S.Xolmatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., prof. A.Batashov, b.f.d., prof. N.Abdurahmonov, b.f.d., prof. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.d., dots. D.Dexqonov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, s.f.d., prof v.b. N.B. Dexkanov, t.f.d, prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.d. dots. Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.d., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. dots. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov, g.f.d., dots. A.Nazarov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n.,dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.d., dots. S.Abdullayev, PhD. D.Sarimsakova., PhD. B.Urinov.

Tibbiyot fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: N.Yusupov.

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy

Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2023-yil 10-noyabrdagi kengaytirilgan 11-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 11). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2023



jihatdan kamol toptirish bilan, ya'ni butun ta'lim tarbiya jarayonini, uning butun yaxlitlik bilan uzviy birlikda va hamjihatlikda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibragimova M.G. (2022). INNOVATIVE ACTIVITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND ITS EFFECT ON THE QUALITY OF EDUCATION. Open Access Repository, 9(11), 138-142.
2. Усмонова М. (2022). Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishda texnologiya fanining dolzarbligi. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4).
3. Ibragimova M.G. (2022). FORMATION OF PROFESSIONAL SKILLS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION. Open Access Repository, 9(11), 143-146.
4. Usmonova M.S (2021). Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education. *IEJRD*.

TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Usmonova Muxlisaxon Sobirovna
Qo'qon Davlat pedagogika instituti dotsenti
E-mail: usmonovamuxlisaxon@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada komil insonni ruhan shakllanishida, kamolotga yetishida, kasb-hunar tanlashida, ularning ilmiy bilimlarni egallashida, ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, aqliy va jismoniy jihatdan rivojlanishlarida, o'zlashtirilgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay bilishlariga, mustaqil fikrlab harakat qilishlariga texnologiya fani mashg'ulotlarining samarali tashkil etilishining zarurligi borasidagi fikrlar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: mehnat, an'ana, texnologiya, mashg'ulot, metodika, nazariya, amaliyot

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ КУРСОВ

Усманова Мухлисахан Собировна
Доцент Кокандского государственного педагогического института
Электронная почта: usmonovamukhlisaxon@gmail.com

Аннотация. В статье рассмотрены о необходимости эффективной организации технологических занятий при духовное становление совершенной личности, зрелость, выбор профессии, приобретение научных знаний, самостоятельность в творческой инициативе и учебной деятельности, мышление, умственное и физическое развитие, умение применять полученные знания в практической деятельности, самостоятельное мышление, суждения.

Ключевые слова: работа, традиция, технология, обучение, методика, теория, практика.



IMPROVING THE METHODOLOGY OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES

Usmanova Mukhlisakhan Sobirovna

Docent of the Kokand State Pedagogical Institute

E-mail: usmonovamukhlisaxon@gmail.com

Annotation. *The article discusses the need for effective organization of technological classes in the spiritual formation of a perfect personality, maturity, choice of profession, acquisition of scientific knowledge, independence in creative initiative and educational activities, thinking, mental and physical development, the ability to apply the acquired knowledge in practical activities, independent thinking, judgments.*

Key words: *work, tradition, technology, training, methodology, theory, practice.*

Kirish

Qadimiy xalqning mehnat anʼanalari komil insonni ruhan shakllantirish, kamolotga yetkazish va kasb-hunar tanlashga koʻmaklashadi. Xalqning mehnat jarayonida hosil boʻlgan mehnat malakalari va xalqning oʻziga xos axloqiy, psixologik sifatlar yigʻindisi natijasida paydo boʻlgan mehnat anʼanalari jamiyat yoki jamoa mavjudligining zaruriy sharoitlarini ifodalaydi, yosh avlod uchun meros sifatida katta avlodlar yetishgan tajribani saqlashga xizmat qiladi. Zero, xalq ommasi kundalik ijodida mavjud boʻlgan mehnat anʼanalari hayotiydir. Oʻzbek xalqi asrlar mobaynida oʻzining yashash tarzi va turmushining, ijtimoiy hayoti va faoliyat xususiyatlari bilan bogʻlangan mehnat tarbiyasining mustahkam anʼanalarini ijod qilib, bir vaqtda avlod - avlodga mehnat mahoratlarini shakllantirish yoʻllari va vositalari haqidagi bilimni uzatib borgan. Shu tariqa mehnat anʼalrining rivojlanishi bugungi fah-texnika taraqqiyotini rivojlanishiga sabab boʻlgan.

Fan va texnika rivojlanib borgan sari texnika va texnologiyalarning oʻrni va roli oshishi natijasida texnologiyalar ham yangilanib va oʻzgarib bormoqda. Bu esa inson qoʻl mehnatini yengillashtirishga, mehnat unumdorligini oshirishga, sifatli mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Maʼlumki, oʻqitish usullari oʻqituvchining oʻquvchilar bilan muayyan maqsadlarga erishish yoʻlidagi faoliyatidan tarkib topgan pedagogik jarayonni muvofiqlashtiruvchi subyekt boʻlib, "nimani?", "kimga?", "qanday?" va "qancha?" oʻrgatish zarurligi haqidagi masalalarni yechib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham taʼlim jarayonida oʻquvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirish, ularning mustaqil, ijodiy fikrlashlari uchun qoʻllaniladigan shakl va usullarni mos ravishda tanlash kelgusida kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirishda oʻz samarasini beradi. Shu sababli oʻqitish ishlarini takomillashtirish borasida koʻplab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Boshqa oʻquv fanlari qatori texnologiya darslarida ham oʻquvchilar maʼlum hajmdagi bilim, koʻnikma va malakalarni egallashlari kerak. Bir qator yetakchi nazariyotchi olimlardan M.M.Rubinshteyn, B.P.Yesipov, M.N.Skatkin, I.Y.Lerner, Y.K.Babanskiy, M.Maxmutov, V.P.Bespalkolar tomonidan taʼlim metodlari tadqiq etilgan. Shuningdek, SH.A.Amonashvili, S.N.Lisenkova, I.P.Volkov, V.F.Shatalov, YE.N.Ilin, T.I.Gonchareva, I.P.Ivanov, M.Abdurasulov kabi novator oʻqituvchilar tomonidan maktab amaliyotida oʻquvchilarga oʻtiladigan darslarning qiziqarli va samarali boʻlishiga xizmat

qiladigan bir qator o'ziga xos bo'lgan o'qitish usullari ishlab chiqilgan va amalda sinab ko'rilgan. Mamlakatimiz olimlari, tadqiqotchilari A.Abduqodirov, B.Adizov, K.Zaripov, J.Yo'ldoshev, J.Ikromov, B.Mirzahmedov, R.Mavlonova, Z.Ismoilova, U.Inoyatov, F.Yuzlikayev, N.G'aybullayev va boshqalar tomonidan didaktika hamda xususiy metodikalarda, R.X.Djurayev, X.Ibragimov, P.Magzumov, U.Nishonaliyev, A.Choriyev, N.Shodiyev, A.Xodjaboyevlar va boshqalar esa mehnat va kasb ta'limi nazariyasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan. Ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha N.Azizxodjayeva, L.V.Golish, I.I.Karimov, N.Muslimov, O.Roziqov, N.Saidahmedov, O'.Tolipov, J.Tolipova, Sh.Sharipov, Q.Abdullayeva, O.Qo'ysinov, S.X.Yaminova va boshqalar tomonidan ilmiy-metodik ishlar amalga oshirilgan. Bulardan N.Azizxodjayeva, N.Sayidahmedov, O'.Tolipov va boshqalar tomonidan ta'lim jarayonida ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning umumiy didaktik va ba'zi uslubiy asoslari belgilab berilgan. J.Tolipova tomonidan biologiya darslarida, S.X.Yaminova tomonidan esa informatika darslarida o'quvchilarning mustaqil rollarni ijro etishlari va ssenariylar tuzish kabi tajribalar atroflicha o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada o'quvchilarni kamolotga yetishida, kasb-hunar tanlashida, ularning ilmiy bilimlarni egallashida, ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqil fikrlab harakat qilishlariga texnologiya fani mashg'ulotlarining samarali tashkil etilishining zarurligi borasidagi fikrlar tahlil qilingan.

Tahlillar va natijalar

Ma'lumki, har qanday fan kabi texnologiya fani ham o'zining rivojlanish tarixi, maqsad-vazifasi, mazmun-mohiyati, tamoyil va qonuniyatlari, metod, usul va vositalari yordamida ta'lim oluvchi shaxsi tarbiyasiga yo'naltirilgan. Zero, texnologiya fani mashg'ulotlari o'quvchilarni ilmiy bilimlarni egallashlarida, ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, aqliy va jismoniy jihatdan rivojlanishlariga, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilishlariga, mustaqil fikrlab harakat qilishga, kasb-hunarga qiziqishlariga xizmat qiladi.

Texnologiya – yunoncha ikki so'zdan – “texnos” (techne) – mahorat, san'at va “logos” (logos) – fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan. Texnologiya ish usullarini, uning rejimini, harakatlar ketma-ketligini o'z ichiga oladi. Mehnat jarayonida texnika va texnologiyalarning roli mahsulot tayyorlashning eng zamonaviy va samarali usullarini yaratishdan iborat. Bugungi kun mehnat an'analari va zamonaviy texnologiyalar birligi ta'lim oluvchi shaxsini tarbiyalashga yo'naltirilgan. Bu jarayonda uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan texnologiya fanining mashg'ulotlari alohida o'rin tutadi. Texnologiya fani nazariyasining markazida ta'lim jarayonining asosiy ikki ishtirokchilari: ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar turadilar. Har ikki ishtirokchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, o'zaro muloqot, ularning bir-birlariga nisbatan ko'rsatadigan aks ta'sirlari natijasida eng zamonaviy talablarga javob beradigan texnologiya fani mashg'ulotlarining samarali tashkil etilishiga olib keladi.

Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etilishida quyidagi didaktik tamoyillariga amal qilinishi zarur:

- onglik va faollik tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlaridagi onglik tamoyili ta'lim oluvchilardagi ta'lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o'rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o'rtasidagi bog'lanishni tushungan holda o'zlashtirib olish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilish kabi me'yorlarni anglatadi.



- ilmiylik tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlaridagi ilmiylik va tizimlilik tamoyili ta'lim oluvchilarga o'rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi.

- tizimlilik va izchillik tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlaridagi tizimlilik va izchillik tamoyili asosida o'qitish bu mashg'ulotlarni qat'iy mantiqiy tartibda olib borib, o'quvchilar bilim ko'nikma va malakalarini izchillik bilan egallab borishlari va ayni paytda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganishni nazardan tutadi. Zero, buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiyning ta'biri bilan aytganda, - hamma narsa uzluksiz ketma-ketlikda olib borilishi kerak, bugungi aytganlaringiz kechagisini mustahkamlashi va ertangi aytganingizga yo'l ochib berishi kerak.

- yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlari uchun tanlab olingan fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari, kashfiyotlari ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos kelishi kerak. Bu jarayonda ta'lim oluvchilarning ilmiy bilimlarni egallashi, ularda ilmiy dunyoqarash, tafakkurni rivojlanishi, har bir mashg'ulotlarda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmunini anglab olishi, ularning ijodiy qobiliyatini shakllantirilishi hisobga olinadi. Zero, har bir ta'lim oluvchi o'zining individual jismoniy, psixik va axloqiy xususiyatlariga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi. Ta'lim beruvchining bu xususiyatlarni o'rganishi va hisobga olishi ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va har bir ta'lim oluvchining ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quv materialini ta'lim oluvchining yoshiga va individual xususiyatiga mos holda o'tish uchun ta'lim beruvchi quyidagi shartlarga amal qilishi lozim:

- ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarining anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi;

- ta'lim beruvchining o'quv rejasi, o'quv dasturi, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va zarur qo'shimcha adabiyotlarni qunt bilan o'rganib chiqishi;

- guruhdagi ta'lim oluvchilar tarkibi, fan va mavzuning maqsadi hamda xarakteriga, darsning maqsadiga qarab o'qitishning yangi – yangi usullarini qo'llashi;

- mashg'ulot jarayonida o'z nutqini izchil, tizimli va emotsional, ta'sirli bo'lishiga erishish;

- mashg'ulot jarayonida ta'lim oluvchilar diqqatini markazlashtira olishi va hokazo.

- nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlarini nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili asosida tashkil etish – ta'lim oluvchilarning ilmiy bilimlar bilan ishlab chiqarish faoliyat ehtiyojlari asosida paydo bo'lishi va aynan faoliyatga xizmat qilishi, shuningdek, hayot bilan bog'lanishi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llash lozimligini ta'minlaydi. Zero, texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etilishida nazariya va amaliyot birligi tamoyilining tadbiri quyidagi xulosalarga olib keladi:

- har qanday bilimning to'g'riligi amaliyotda sinalib, tasdiqlanadi;

- amaliyot - haqiqat mezon, bilishning manbai va tadqiqot natijalarining qo'llanish ko'lam;

- to'g'ri tashkil qilingan ta'lim-tarbiya hayotdan kelib chiqadi;

- ta'lim-tarbiyaning samaradorligi uning amaliyot bilan qanchalik bog'liqligi bilan belgilanadi;

- bilim berishning samaradorligi. uning kasb ta'limi bilan bog'liqligi bilan belgilanadi;

- berilayotgan bilim hayot bilan qanchalik bog'lansa, bolalardagi bilim egallash shunchalik ongli kechadi.

- ko'rsatmalilik tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishdagi ko'rsatmalilik tamoyili – ta'lim oluvchilarda o'rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog'liq muayyan hissiy amaliy tajriba orqali bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishlari, ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilishlariga xizmat qiladi. O'qitish jarayonida ko'rsatmalilik tamoyili asosida ta'lim oluvchilarning ko'rish, eshitish, xid bilish, badan bilan sezish, hatto ta'm bilish sezgilaridan ham foydalanishni talab etadi. Texnologiya fani mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarning malaka va ko'nikmalarini hosil qilishda mehnat usuli va operatsiyalarini ko'rsatish keng qo'llaniladi. Zero, ko'rsatmalilik ta'lim oluvchilar qiziqishini orttiradi va mavzuni puxta o'zlashtirishga qiziqtiradi, o'tilayotgan mashg'ulot mavzusini yaxshi esda saqlab qolishga yordamlashadi. buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta'biri bilan aytganda, ko'rsatmalilik didaktikaning oltin qoidasidir.

Texnologiya fani mashg'ulotlarida bilimlarni mustahkam va puxta o'zlashtirish tamoyili, politexnik tamoyil, texnologiya darslarini unumli mehnat asosida o'qitish tamoyili [1], reduksiya tamoyili, tushunarli bo'lishlilik tamoyili, faollik kabi tamoyillarga ham amal qilishlik mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda dasturil amal bo'ladi. Zero, olimlarning ta'lim tamoyillarining soni va nomi to'g'risidagi fikrlari bir- biridan farq qilsa ham, ammo ularning mazmuni va o'qitish qonuniyatlarini tushunish an'anasi asosan bir xildir.

Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etishda didaktik tamoyillar bilan bir qatorda shunday didaktik qoidalar ham mavjuddirki, ularga amal qilish ta'lim beruvchidan alohida maxoratni talab etadi.

Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etilishida quyidagi tavsiyalarni nazarda tutish maqsadga muvofiqdir:

- texnologiya fani mashg'ulotlarini pedagogika, psixologiya, tasviriy san'at, tabiatshunoslik fanlari bilan bog'lab olib borish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida mahalliy ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini muhokama etib borish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida xorijiy ta'lim metodikalarini muntazam o'rgatib borish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida fanning asosiy iimiy izlanish natijalariga tayanish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarining mazmuni xorijiy o'qituvchilarning ilg'or ish tajribasi bilan boyitilgan materiallar asosida yoritib borish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarni amaliy ishga tayyorlash va ularni mehnat malaka va ko'nikmalarni egallashlarini ta'minlash;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarning aqliy, iroda va axloqiy sifatlarining rivojiantirilishiga e'tibor berish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, ko'rgazmali va tarqatma materiallardan unumli foydalanish;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida uzatish qurilmalari yordamida slaydlar va elektron materiallar yoki boshqa texnik vositalardan foydalanish;



- texnologiya fani mashg'ulotlarida pedagogik va zamonaviy axborot texnologiya yutuqlarini doimiy qollash;
- texnologiya fani mashg'ulotlarida interfaol usullar, ta'limiy vositalar, didaktik o'yinlarni tadbiq etish.

Xulosalar

Xalqimiz azaldan mehnatni ulug'lagan. Mehnatsevarlik kishilarning eng yaxshi fazilatlaridan biri deb hisoblangan. Kishilar halol mehnat qilib, shuning evaziga topgan daromadlari hisobiga yashamoqlari va bolalarini ta'minlamoqlari lozim. «Peshona teri bilan topgan bir qora chaqa o'zgalarning ehson etgan xazinalaridan yaxshiroqdur» - deb yozgan edi Alisher Navoiy. Bugungi kunda yosh avlodning mehnat tarbiyasida texnologiya fani mashg'ulotlarini to'g'ri va samarali tashkil etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, yoshlarga kasb tanlashida, barkamol shaxs bo'lib yetishishida, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishida texnologiya fanining mashg'ulotlari asosiy ko'makchi va muhim manba vazifasini o'taydi. Zero, texnologiya fani mashg'ulotlarida duradgorlik, chilangarlik, tikuvchilik, pazandachilik sohalariga oid kasb-hunarlar bilan tanishtiriladi. Bu tanishtirish yoshlarni kelajak hayotida shu kabi kasb-hunarlardan birini egallab, sohaning mohir mutaxassisi bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Zilola Durdimurotovna Rasulova Texnologiya darslarini tashkil etishning didaktik tamoyillari "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10 www.openscience.uz 432-b
2. Усмонова, М. (2022). Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishda texnologiya fanining dolzarbligi. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4).
3. SOBIROVNA, U. M. (2021). Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education. *IEJRD*.



13.00.00

PEDAGOGIKA FANLARI
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PEDAGOGICAL SCIENCES

1	Bo'lajak informatika o'qituvchilarni o'quv amaliyoti jarayonida pedagogik faoliyatga tayyorlash yo'llari	
	Isabayeva M.M.,Maxkamov X.Q.....	448
2	Oliy o'quv yurtlarida ingliz adabiyotini o'qitishdagi obyektiv muammolar	
	Mirsadullayev M.M.....	452
3	Bo'lajak logopedlarni kompetentligini shakllantirish omillari	
	Xonbabayeva M.A.....	459
4	Pedagog kadrlar kasbiy-metodik kompetentligini shakllantirish masalalari	
	To'xtasinov M.G'.....	463
5	Bolalarga harakatli o'yinlarni o'rgatish shartlari va usullari	
	Lutfullayev B.I.....	468
6	Инфографика: визуализация информации в современном мире	
	Зохидова М.Х.....	472
7	Texnologik ta'lim darslarida amaliy mashg'ulotlarning xususiyati va texnik bilimlarning uzviy bog'lanishi	
	Ibragimova M.G'.....	479
8	Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etish metodikasini takomillashtirish	
	Usmonova M.S.....	484
9	Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga etnomadaniy ta'lim va tarbiya berishning pedagogik shart-sharoitlari	
	Erkinjonova G.F.....	490
10	Fizikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi	
	Madaliyev A.M.....	498
11	Mobil aloqa tizimining hisoblash usullari	
	Melibaev M.....	501
12	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tabiiy sharoitda tashkil qilish	
	Maxkamov A.Yu.,Ramazonova M.S.....	505
13	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan bilim va ko'nikmalarning nazariy asoslari	
	Voxidov D.O.....	511
14	Raqamli texnologiyalarning tarixi, didaktik xususiyatlari va vazifalari	
	Madmusayev J.M.....	514
15	Pedagogical and psychological aspects of the formation of students' abstract thinking	
	Najmiddinova X.Y.....	520
16	Kredit-modul o'qitish tizimi asosida mutaxassislarini tayyorlash	
	Ulkanov S.S.....	525